

**BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARINI O`RGANISH IJTIMOYIY PSIXOLOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

Roziqova Malika Olimovna

*Qoraqalpoqiston Respublikasi Pedagoglarni yangi
metodikalarga o`rgatish Milliy markazi o`qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilaning jamiyatdagi o`rni, oila turlari hamda mamlakatimizda baynalminal oilalar statistikasi, baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o`rganishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: oila, jamiyat, baynalminal, millatlararo, irqilararo.

Oila jamiyatning kichik bir ko`rinishi bo`lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo`lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo`ladi. Chunki oilada kelajak egalari tarbiyalanadi, xalqimizning eng muhim axloqiy-ma'naviy an'analari avlodlardan avlodga o'tib keladi va aynan oilada farzandlarimiz mehr-oqibat, hurmat va o'zaro yordamni o'rganadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda oilalarning mustahkam bo`lishiga alohida e'tibor qaratiladi. So`zimizning isboti sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyoda 1994-yildan beri 15-may “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlanib kelinadi. Bundan tashqari Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev farmoni va qaroriga muvofiq Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o`rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo`lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi.

1. To`liqligiga ko`ra: to`liq, noto`liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.
2. Bo`g`inlar soniga ko`ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo`lgan) va ko`p bo`g`inli (ikki va undan ortiq avlodlardan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.
3. Bolalar soniga ko`ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3—4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3—4 bolali oilalar ko`p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o`rtacha bo`lgan oilalar sarasiga kiradi.
4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko`ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.
5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko`ra: oliy ma'lumotlilar, o`rta-maxsus, o`rta, tugatilmagan o`rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga ega bo`lgan qayliqlardan tashkil topgan oila.

6. Oilaning «yoshiga» ko‘ra: yosh oila (1 yilgacha, 3—5 yillik, 6—10 yillik turmush tajribasiga ega bo‘lgan oilalar), o‘rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

7. Qayliqlaming ota-ona oilasi (ota-onasi)ning moddiy ta‘minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo‘yicha bir-biriga mos va mos bo‘lmagan oilalar.

8. Regional jihatlariga ko‘ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

9. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko‘ra, ajralish saviyasida — nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo‘lgan oila, o‘rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

10. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko‘ra: er yetakchi bo‘lgan oila, xotin yetakchi bo‘lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko‘ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

12. Er-xotinlaming millatiga ko‘ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o‘z navbatida ikkiga bo‘lish mumkin:

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-turkman, rus-ukrain, o‘zbek-tatar va boshqalar;

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o‘zbek-rus, o‘zbek-ukrain, o‘zbek-eston, o‘zbek-nemis va boshqalar.[1]

Mamlakatimiz ko‘p millatli mamlakat. Xususan bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashab kelmoqda. Bu do‘stona munosabatlar esa ba‘zan qarindoshlik aloqalari bilan ham mustahkamlanayotganligiga kundan-kunga ko‘proq guvoh bo‘lmoqdamiz. Ya‘ni hozirgi kunda mamlakatimizda baynalmilal oilalarning soni ortib bormoqda. Statistik ma‘lumotlarni tahlil qilar ekanmiz bu ko‘rsatkich nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda ortib bo‘layotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

O‘tmishda bu kabi ikki millatli yoki irqilararo nikohlar ko‘plab davrlarda ta‘qiqlangan edi. Jumladan AQSH, Germaniya va Janubiy Afrikada ta‘qiqlanib kelingan. Xususan AQSHda bunday nikohlar qonun bilan ta‘qiqlanib qo‘yilgan. Biroq 1948-yilda BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” kuchga kirgandan so‘ng “irqi, millati va diniga ko‘ra hech qanday cheklovsiz” nikoh qurish huquqini berdi. Millatlararo nikohning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilar ekanmiz millatlararo nikohning salbiy jihatlarini sifatida xususan AQSHda olib borilgan tadqiqotlar bu kabi nikohlar orasida ajrashishlar nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ijobiy tomoni sifatida esa jamiyatda turli millatlararo nizolarni oldi olinishi haqida so‘z yuritiladi.

Shunday qilib, millatlararo nikohlar juda murakkab ijtimoiy-madaniy va psixologik hodisa bo'lib, uning parametrlarining o'ziga xos mazmuni bilan ajralib turadi.

T.Eriksen odamlarning aralash nikohga kirishi bilan bog'liq vaziyatni "etnik anomaliya" deb ataydi. Olimlar bu kabi aralash oilalarda Oilaviy munosabatlarda turmush o'rtoqlar notanish urf-odatlar, qadriyatlar va qadriyatlardan biroz ehtiyot bo'lish haqida aytishadi. Sababi turli millat vakillarining urf-odatlari, bayramlari ham turlicha bo'ladi. Aynan mana shu urf-odatlarga amal qilish borasida er-xotin orasida turli nizolar kelib chiqishi mumkin. Masalan farzand tarbiyasi borasida.

Mamlakatimizdagi statistik ma'lumotlarga ko'ra baylanminal oilalar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. 2020yilda mamlakatimizda tuzilgan nikohlarning 6,3% ulushini millatlararo nikohlar tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 7,1%ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'rib chiqilsa eng yuqori ko'rsatkich Qoraqalpoqiston Respublikasida qayd etilgan. Ya'ni 2020-yilda jami tuzilgan nikohlarning 22,3%ni millatlararo nikohlar tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 23,6 %ni tashkil etgan. [2]

Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda baynalminal oilalarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Olimlarimiz tomonidan oilalarni o'rganishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, biroq mamlakatimizda baynalminal oilalar, ularning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, ushbu oilalarning mustahkamligi hamda ajrashishlar ko'rsatkichi, rollar taqsimoti va eng asosiylaridan biri bu kabi oilalarda farzand tarbiyasi haqidagi ma'lumot va tadqiqotlar yetarli emas. Demakki baynalminal oilalarni o'rganish orqali, ushbu oilalarda nikoh oldi faktorlar, rollar taqsimoti, oilaviy munosabatlar, ajrimlar va ularning kelib chiqish sabablarini ham baynalminal oilalarda tarbiyalangan farzandlar va ularning aqliy rivojlanishini o'rganish, mavjud muammolarni oldini olish va bartaraf etish imkonini beradi.

Adabiyotlar.

1. G.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog'inov. **Oila psixologiyasi.** Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik.. — T.: «Sharq», 2015. — 296 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi statistik ma'lumoti.
3. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. — T.: 2007. — 316 b.